

**«Navoiyuran» davlat korxonasi va uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga oid
huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish**

T A R T I B I

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 829-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, korxonada korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Tartib O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi va korxonaning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlari talablari buzilishi, manfaatlar to‘qnashuvi sodir etilganligi, shuningdek odob-axloq qoidalari buzilishi holatlari bo‘yicha xabar bergan korxonada xodimlarini rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur tartibning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar — fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisi;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish — tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e‘lon qilingan shaxslarni topishda yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish — korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish;

korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar — O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 611, 1931 va 1932-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi «g» bandi, 168-moddasining uchinchi qismi «v» bandi, 1929 va 19210, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan

jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar;

rag'batlantirish – xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, yuksak kasbiy mahorati va qonuniylik talablariga rioya etganligi uchun qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash.

4. Korxonada korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfidentsiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan korxonaning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqli emas. Agar murojaatchi o'z xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xohishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, korxonada uning oshkor bo'lishiga javobgar bo'lmaydi;

qonuniylik – korxonada aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu tartibga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta'qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan korxonada xodimni xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari korxonada tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta'sir choralari qo'llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, korxonada aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag'batlantirish

5. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

korxonada korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

6. Xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish, to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganligi uchun, komplayens xizmati tomonidan korxonada bosh direktori nomiga kiritilgan bildirgisi asosida rag'batlantiriladi. Xodimlarni rag'batlantirish korxonada bosh direktorining vakolati doirasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

7. Quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lgan taqdirda xodimlar rag'batlantirilishi mumkin:

xodimlarga nisbatan qasddan sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning oldi olinishi yoki to'xtatilishi;

tayyorgarlik ko'rilayotgan korrupsiyaga oid yoki boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar berishi natijasida jinoyat fosh etilishi;

jinoyatni to'xtatishi va uni to'liq fosh etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko'maklashish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga taklif va tashabbuslarini taqdim etilishi, shuningdek ushbu takliflarni amaliyotga joriy etilishi.

8. Xodimni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda uning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashdagi faol ishtiroki asosiy mezon sifatida inobatga olinadi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

9. Mazkur tartib talablarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

10. Mazkur tartib, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.